O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

13. *G’ofurova, G., & Shoh Abbos, U. (2022). SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA SHAXSNI ANIQLOVCHI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING AMALIY FAOLIYATDAGI AHAMIYATI.*

14. Akhatov, A. R., & Qayumov, O. A. (2021). Ulugmurodov Sh. AB Working with robot simulation using ros and gazebo in inclusion learning. *Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясида рақамли иқтисодиёт истиқболлари” республика илмий-техник анжуман, ЎзМУ Жиззах филиали*, 5-6.

INSTITUSIONAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

Xudoyberdiyev Jamshid Juraboy o‘g‘li
Sambhram universitetining Jizzax shahridagi filiali NTM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi institusional o‘zgarishlar sharoitida kambagallik darajasini kamaytirishning davlat dasturlari va ustuvor vazifalar yoritilgan bo’lib, kambag’allikni qisqartirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kambag’allikni qisqartirish, iqtisodiy o’sish, ishsizlik, norasmiy ishchilar, Ijtimoiy himoya yagona reyestri, mahalla, hokim yordamchasi,“Temir daftar”, “Ayollar daftari” “Yoshlar daftari.

Mamlakatimizda yaratilgan huquqiy va institusional mexanizmlar, ayniqsa, bolali oilalar, qariyalar va nogironlar o‘rtasida kambag‘allik darajasining keng ko‘lamli o‘sishining oldini olishga imkon beradi. Shuningdek, aholi orasida kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari ehtiyojlarini hisobga olgan holda shinam uy-joylar qurilishini ta’minlash bo‘yicha respublika hududlarida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish belgilangan. 2030 yilgacha aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining iqlim o‘zgarishi va boshqa xavf-xatarlarga chidamliligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududlarini favqulodda vaziyatlardan har tomonlama muhofaza qilish konsepsiyasini yaratish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq kambag‘allikni 2 barobarga qisqartirishni ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida kishilarning turmush darajasini yaxshilash, aholi ish bilan oqilona bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rnilarini yaratish kabi masalalarga ustuvor darajada e’tibor qaratilmoqda. ”Hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan kambag‘allikni qisqartirish vazifalari ko‘p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o‘rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog‘liqdir.

“Ijtimoiy xizmatlar agentliklarining ijtimoiy xodimlari, kam ta’minlangan oilalar bilan birgalikda ularning ehtiyojlari va ehtiyojlarini baholab, moliyaviy

holatini yaxshilash ustida ishlaydi. Doimiy aloqada bo‘lgan holda, ular oilalar bilan birgalikda ularning sharoitini yaxshilash bo‘yicha yechimlar ishlab chiqadi. Mazkur davlatda ijtimoiy himoya sohasidagi davlat siyosatini olib boruvchi vazirlik hamda uning tarkibiga kiruvchi agentlik mavjud”.

Iqtisodiyotda kambag‘allikni qisqartirishning nostandart usullaridan foydalanish ijobiy samara beradi, jumladan: “Mahallabay” ish tizimining samarali yo‘nalishlarini qo‘llash kambag‘allikni qisqartirishning eng tez natijasini ko‘rsatuvchi iqtisodiy vosita bo‘lib hisoblanadi. Bunda har bir hududlarda “Mahallabay” ishlash tizimini joriy etish orqali aholining ish bilan bilan bandligini ta’minlash orqali daromadlarini oshirish mexanizmlarini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar va xotin–qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashishga alohida e’tibor qaratiladi.

Mamlakatning rivojlanishida har bir insonga kunlik zarur bo‘ladigan eng kam miqdordagi ta’minotning yetishmasligi zamonaviy dunyo davlatlari taraqqiyoti uchun boshqa xavflardan kam bo‘lmagan kambag‘allik xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Zero, buning zamirida shaxs, jamiyat va davlatning bugungi va ertangi kuni, barqaror taraqqiyotning asoslari mujassam. Shu bilan birga, kambag‘allikni bartaraf etish, buning uchun zarur shart–sharoit va imkoniyatlarni yaratish amalda mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichga o‘tishini ta’minlashini e’tiborni qaratgan holda respublikamizda kambag‘allikka qarshi kurashish sohasida zarur shart–sharoitlarni tartibga solish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni ilgari suramiz (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respaublikasida kambag‘allikka qarshi kurashish sohasida zarur shart–sharoitlarni tartibga solishning konseptual asoslari

Iqtisodiy	**Tashkiliy**	**Huquqiy**
1.Institusional normalar va mexanizmlar iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar samaradorligini oshirish. 2.Iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi institusional mexanizmlarni takomillashtirish. 3.Aholi ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy muhofaza qilishning yangi usul va mexanizmlarini takomillashtirish.	1.Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat samaradorligini davlat siyosati doirasida tartibga solish 2.Kambag‘allikni qisqartirishning samarali vositalarining huquq va kafolatlariga rioya qilish monitoringi. 3.Kambag‘allikka qarshi kurashishda ilg‘or xorijiy tajriba, xalqaro me’yorlar, aniq mezonlar va baholash usullarini ishlab chiqish	1.Aholi ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy muhofaza qilishning yangi usul va mexanizmlarini doimiy takomillashtirib qonunchilik asosida tartibga solish. 2.Xususiy mulk, tadbirkorning huquqiy himoyasi, qonun ustuvorligini ta’minlash. 3.Aholini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy-institusional asoslarini takomillashtirish

Bundan tashqari mahallada “Hokim yordamchisi” doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o‘rganish orqali ularni kasb–hunar va tadbirkorlikka o‘rgatuvchi o‘quv markazlariga yo‘naltirish va o‘qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta’minlashga yordam

berishi va mahalladagi mavjud bo‘sh ish o‘rinlarini hamda xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning mavsumiy ishchilarga bo‘lgan talabini aniqlash orqali ishsizlarni, birinchi navbatda “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kirgan yoshlar va xotin-qizlarni bo‘sh (vakant) ish o‘rinlariga joylashtirish hamda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borishi kerak. O‘tgan davr mobaynida “Temir daftar”ga 594,9 ming oila va ularning 2,5 million nafar a’zosi, shundan 659,1 ming nafar mehnatga layoqatli ishsiz oila a’zolari kiritilgan.

Mamlakatimizda jami mehnat resurslarining 77 foizi yoki 1,504 mln. nafari iqtisodiy faol aholi sifatida qayd qilingan. Bundan tashqari 13,7 mln. kishi yoki mehnat resurslarining 67,2 foizi iqtisodiyotda band ahol bo‘lib hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari va aholi bandligi salmog‘ining o‘zgarishi (ming kishi hisobida)

	2022 yilda, soni			
	Mehnat resurslari	**Iqtisodiy faol aholi**	**Iqtisodiyotda (ish bilan) bandlar soni**	**Ishsizlar soni**
O‘zbekiston Respublikasi , shu jumladan viloyatlar	19517,5	15038,9	13706,2	1332,7
Qoraqalpog‘iston	1067,6	786,1	714,2	71,9
Andijon	1780,8	1427,3	1296,8	130,5
Buxoro	1074,7	856,4	780,6	75,8
Jizzax	791,0	602,7	546,4	56,3
Qashqadaryo	1813,4	1331,5	1207,3	124,2
Navoiy	570,6	445,8	410,1	35,7
Namangan	1588,3	1208,5	1100,6	107,.9
Samarqand	2164,8	1632,3	1479,8	152,5
Surxondaryo	1465,4	1109,9	1006,3	103,6
Sirdaryo	487,4	369,5	335	34,5
Toshkent	1619,2	1321,4	1204,5	116,9
Farg‘ona	2097,8	1665,6	1511,7	153,.9
Xorazm	1050,9	815,5	741,8	73,7
Toshkent shahri	1945,6	1466,4	1371,1	95,3

2-jadvalda ko‘rinib turibdiki, mehnat resurslari va aholi bandligi salmog‘ining o‘zgarishi har bir viloyatda turlicha qayd qilingan, shu jumladan, iqtisodiy faol aholi 15038,9 ming kishini tashkil qilib, bu ko‘rsatkich Andijon viloyatida 1427,3 Samarqand viloyatida 1632,3 Toshkent shahrida esa 1466,4 ming kishiga teng bo‘lgan.

Hozirgi vaqtda aholini kambag‘al qatlamga tushib qolishining oldini olish uchun aholining bandligini ta’minlash bo‘yicha bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Masalan, tadbirkorlik faoliyatini, oilaviy tadbirkorlikni va o‘z-o‘zini band qilishning zamonaviy turlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning rivojlantirish

uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, daromadlarni oshirishga erishilmoqda.

Ayni vaqtda kichik biznes va tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, mazkur sohada kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini tashkil etish va boshqarish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- har bir hududning iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy va demografik shart–sharoitlarini o‘rganib, bu borada kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlari tuzilmalarini tashkil etish asosida oqilona bandlikni ta’minlash;
- iqtisodiy taraqqiyotini hisobga olgan holda, hududlarda bozor infratuzilmasi tashkil etilishining sub’yektiv omillarini nazarda tutib, rivojlantirishda kichik va o‘rta tadbirkorlikni muntazam, davomli faoliyat ko‘rsatishiga erishish;
- sanoat korxonalarini rivojlantirishda qishloq joylarining hududiy xom ashyo, ishchi kuchi, mehnat resurslari va ularning mobilligi hamda tabiiy resurslarni inobatga olish;
- kichik va o‘rta biznes sub’yektlarining iqtisodiy samaradorligiga erishish chora–tadbirlarini amalda qo‘llash;
- hududlarda aholi daromadlari va to‘lov qobiliyatini kichik biznesni rivojlantirish hisobiga oshirishga erishish;
- kichik va o‘rta biznes sub’yektlarining mahalliy xom ashyolardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishining salmog‘ini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5975-sonli Farmoni. http://lex.uz.doc/4776669
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish” to‘g‘risida qarori 2020-yil 26-martdagi PQ-4653-son www.lex.uz
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “Hokim yordamchilari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” qarori 2022-yil 16-fevral, 72-son. www.lex.uz